

MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PUL-KREDIT SIYOSATINING O'RNI

Kuziyev Ravshan Ramazanovich

Bank moliya akademiyasi o'qituvchisi

Iqtisod fanlari falsafa doktori (PhD)

+99871 237-50-11

Ikramov Elyor Baxramovich

Bank moliya akademiyasi tinglovchisi

+99897 731-33-00

Annontatsiya: Mazkur maqolada davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosatining o'ziga xos xususiyatlari, uning amaldagi muammolari va ularni hal qilish yo'llari, ushbu siyosatning vositalari, moliyaviy tizimning rivojlanishi va boshqa ko'plab muhim masalalar bilan birga O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda pul-kredit siyosatining imkoniyatlari keng o'rganiladi.

Kalit so'zlar: moliyaviy barqarorlik, davlat moliyasi, pul kredit siyosati, pul muomilasi, banklar, foiz stavkalari, inflatsiya, Markaziy bank, qayta moliyalash stavkasi.

Abstract: In this article, the peculiarities of monetary policy in ensuring the stability of state finances, its practical problems and ways to solve them, the tools of this policy, the development of the financial system and many other important issues, together with economic growth in Uzbekistan the possibilities of monetary policy in providing are widely studied.

Key words: financial stability, public finance, monetary credit policy, monetary transactions, banks, interest rates, inflation, Central Bank, refinancing rate.

Аннотация: В данной статье рассмотрены особенности денежно-кредитной политики в обеспечении устойчивости государственных финансов, ее практические проблемы и пути их решения, инструменты этой политики, развитие финансовой системы и многие другие важные вопросы наряду с экономическим ростом. в Узбекистане широко изучаются возможности денежно-кредитной политики в обеспечении.

Ключевые слова: финансовая устойчивость, государственные финансы, денежно-кредитная политика, денежные операции, банки, процентные ставки, инфляция, Центральный банк, ставка рефинансирования.

Kirish

Bugungi iqtisodiyotning raqamlashuvi jarayonida mamlakatlar iqtisodiy siyosatining asosiy tarkibiy qismi sifatida tan olingan iqtisodiy siyosat bu bevosita pul-kredit siyosatidir. Shu sababli, birinchi navbatda, pul-kredit siyosatini tushuntirishga e'tibor qaratish joiz. Chunki, davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosatining to'g'ri qo'llanilishi kelajakda ko'plab yutuqlarga asos bo'ladi. Masalan, pul-kredit siyosatini amalga oshirishning ushbu usuli bilan narx barqarorligini ta'minlash, pul agregatlari, zahira pullari va pul massasi hajmining

o'zgarishini nazorat qilish ta'minlanadi. Pul massasining o'zgarishi omillariga asoslangan tahlil shuni ko'rsatadiki, pul massasining o'sishi turli davrlarda oltinvalyuta zaxiralarining ko'payishi va iqtisodiyotni kreditlashning kengayishi hisobiga ta'minlanadi. Valyuta kursini shakllantirishda mutlaqo yangicha yondashuvdan foydalanish, o'z navbatida, Markaziy bankning asosiy e'tiborini ichki bozorda narxlar barqarorligiga qaratgan holda pul-kredit siyosatini takomillashtirish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Moliya tizimiga ishonchning susayishi kiber hodisaning moliya tizimi inqiroziga olib kelishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi¹. Bunda, ushbu hodisa tizimli xatarlarni keltirib chiqarishi uchun yuzaga keladigan moliyaviy zarar hajmi, moliya tizimining yo'qotishlarni qoplash qobiliyatini zaiflashtiradigan darajada yirik bo'lishi lozim. Masalan, kiber hujum natijasida muhim operatsiyalarni uzoq muddatga to'xtatilishi, moliya institutlari balansidagi mablag'larning o'g'irlanishi, maxfiy ma'lumotlarning sizib chiqishi mijozlar va bozor ishtirokchilarining moliya tizimiga ishonchini zaiflashtiradi hamda likvidlilik va kredit qo'yilmalar hajmini kamayishiga olib keladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur maqolada O'zbekistonda moliyaviy barqarorlikni taminlashda pul – kredit siyosatini o'rni va ahamiyati, barqarorlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan keng – ko'lamli amaliy ishlar tahlil qilingan. Mazkur tahlil jarayonini yanada tushunarli va aniq bo'lishi uchun maqolada chizmalar va jadvallar usulidan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Moliyaviy barqarorlik – bu moliyaviy tizimning, ya'ni moliya muassasalari, bozorlar va bozor infratuzilmalarining ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, shu bilan birga moliyaviy vositachilik funktsiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir. Moliyaviy barqarorlik maqsadi alohida moliya muassasasi emas, balki butun moliya tizimi barqarorligini ta'minlashdan iborat. Moliyaviy barqarorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanish asosi hisoblanadi.

Moliyaviy tizim, qachonki banklar, boshqa kredit tashkilotlari va moliya bozorlari uy xo'jaliklari va tadbirkorlik sub'ektlariga bir maromda ishlayotgan tizimning keskin sustlashishiga yo'l qo'ymasa, iqtisodiyotdagagi ishtiroki va uning o'sishi uchun zarur moliyaviy investitsiyalar taqdim eta olsagina barqaror hisoblanadi. Aks holda nobarqaror tizimda iqtisodiy shoklar real iqtisodiyotga noxush ta'sir ko'rsatishi, kreditlashni izdan chiqarishi va kutilganidan ziyod xatarga olib kelishi, bandlikning qisqarishi va iqtisodiy faollikni susaytirishi mumkin.

Moliyaviy nobarqarorlik sharoitida moliya tizimi iqtisodiyot uchun zarur moliyaviy xizmatlarni taqdim eta olmaydi. Masalan, yirik moliya tashkilotidagi qiyinchiliklar moliyaviy nobarqarorlikni yuzaga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, bitta muassasadagi muammolar banklararo operatsiyalar tufayli tizimning bir-biriga o'zaro qattiq bog'langan boshqa tashkilotlariga ham tarqalishi mumkin. Muassasalarning umumiy faoliyati butun moliya tizimi uchun xavfni, ya'ni tizimli

¹ European Systemic Risk Board. (2020, February). Systemic cyber risk.

xavfni yuzaga keltirishi, ishonchli bo'lib tuyulgan alohida tashkilotni ham moliyaviy nobarqarorlikka olib kelishi mumkin.

Moliyaviy barqarorlik va uni tahlil qilish markaziy banklar hamda moliya tizimini tartibga soluvchi organlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bank sektori O'zbekiston moliya tizimining eng muhim bo'g'ini bo'lganligi sababli, uning barqarorligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy vazifalari sirasiga kiradi. Markaziy bank bank tizimidagi o'zgarishlarni kuzatib boradi va baholaydi, shuningdek, tizimli xavflar to'planishini kamaytirish va bank tizimining barqarorligini ta'minlash choralarini ko'rib boradi. Markaziy bank yiliga ikki marta Moliyaviy barqarorlik sharhini chop etadi, unda bank tizimining barqarorligi, makromoliyaviy zaiflik va xatarlar tahlil qilinadi va baholanadi. Ushbu sharhni chop etishdan ko'zlagan asosiy maqsad – jamoatchilik xabardorligini hamda bu sohada Markaziy bankning shaffofligi va hisobdorligini oshirishdan iborat.

Pul-kredit siyosati markaziy banklar tomonidan iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun foydalilaniladigan muhim vositadir. Bu siyosat iqtisodiyotdagi pul va kredit taklifiga ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan, bu esa, o'z navbatida, foiz stavkalari, inflyatsiya va iqtisodiy o'sishga ta'sir qiladi.

Mamlakat "sog'lom" iqtisodiyotining eng samarali ko'rsatkichi uning moliyaviy holatidir. Zero, moliya tizimi nafaqat iqtisodiyotda zarur o'zaro bog'lanishlarni ta'minlaydi, balki makroiqtisodiy tartibga solishning eng samarali dastaklaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham har bir davlatning ijro etuvchi hokimiyatining faoliyati jahon moliya bozorlari beqarorligi sharoitida ham moliya-kredit tizimi va umuman moliyaviy ahvolning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan.

Hozirgi kunda kun tartibida davlat moliyasining barqaror rivojlanishi masalalari ko'proq ko'tarilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, postindustrial jamiyat, globallashuv va jahon bozorining rivojlanishi davrida milliy iqtisodiyot murakkab dinamik tizimni tashkil etuvchi juda ko'p sonli omillar ta'sirida qolmoqda. O'z o'rnilida, davlat moliyasini barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosati mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bu siyosat, mamlakatning moliyaviy tizimini rivojlantirish, moliyaviy iste'molni boshqarish, yangi ish o'rirlari yaratish va boshqa ko'plab maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni ta'minlashda yordam beradi.

Pul-kredit siyosatining mazmun mohiyati uning davlatning iqtisodiy xulq-atvorini belgilab berishidadir, u nafaqat mamlakatdagi aholi farovonligiga, balki davlatning jahon miqyosidagi o'rniga, uning iqtisodiy va milliy xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi mamlakat iqtisodiyotining turli tahdidlardan himoyalanish darajasini belgilaydi. Ushbu tahdidlarning amalga oshirilishi milliy iqtisodiyotning normal ishlashini buzishi, davlatning iqtisodiy manfaatlariiga zarar yetkazishi, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga to'sqinlik qilishi, shuningdek, davlatning boshqa davlatlar, birlashmalar va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan iqtisodiy o'zaro hamkorligini murakkablashtirishi mumkin. Shunga ko'ra, pul-kredit siyosati iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish quroli sifatida davlatning iqtisodiy xavfsizlik tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu holat pul-

kredit siyosati va iqtisodiy xavfsizlik tizimi – davlat moliyasining barqaror rivojlanishini o'rganishning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Milliy valyuta kursini shakllantirishning bozor tamoyillarini joriy etgan holda ichki valyuta bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirish borasidagi amaliy qadamlar bu yo'nalishdagi asosiy qarorlardan biri bo'ldi. Valyuta kursining butunlay yangi tartibi, o'z navbatida, Markaziy bankning asosiy e'tibori va sa'y-harakatlarini faqat ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlashga qaratib, pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish uchun zarur zamin yaratadi.

Pul-kredit siyosatini amalga oshirishda an'anaviy makroiqtisodiy yondashuv va zamonaviy pul-kredit nazariyasini qiyosiy tahlil qilish

| Mezon | An'anaviy makroiqtisodiy yondashuv | Zamonaviy pul nazariyasি |
|--|--|---|
| Davlat xarajatlarini moliyalashtirish | Hukumatlar o'z xarajatlarini soliqqa tortish, qarz olish yoki pul yaratish orqali moliyalashtiradi. | Hukumatlar o'z xarajatlarini pul chiqarish orqali moliyalashtiradilar. Soliqlar va qarzlar iqtisodiyotdan pulni so'rib yuboradi. |
| Soliqqa tortish maqsadi | Iqtisodiyotga sarflanadigan va davlat daromadlari, ya'ni soliq tushumlari hisobidan to'laniishi kerak bo'lgan foizlar bo'yicha hukumatga qarzni to'lash. | Avvalo, valyutaga bo'lgan talabni oshirish. Ikkinchidan, inflyatsiyani pasaytirish, daromadlar tengsizligini kamaytirish va yomon xatti-harakatlarning oldini olish. |
| Inflyatsiya rejimi | Pul-kredit siyosati asosida; Markaziy bank inflyatsiya maqsadiga erishish uchun barqaror narxlar darajasiga mos keladigan foiz stavkalarini belgilaydi. | Moliyaviy siyosatga asoslangan; hukumat xususiy sektordan pul olish uchun har kimga soliqlarni oshiradi. Ish xavfsizligi ham inflyatsiyani nazorat qilish mexanizmi sifatida ishlaydigan NAIBER tomonidan ta'minlanadi. |
| Kalit tezligini o'rnatish | Markaziy bank tomonidan "ikki mandat" ga erishish uchun boshqariladi: to'liq bandlik va barqaror narxlar. | Maqsadli kalit stavkasi pul-kredit siyosatining asosi emasligini ta'kidlaydi. Hukumat pulga bo'lgan talabni kamaytirish bilan birga nol foiz stavkasi siyosatini saqlab qolishga qaror qilishi mumkin. |

Monetar siyosat tushunchasi inglizcha sanaladi aslida. Bizda esa pul-kredit siyosati deb talqin qilinadi. Pul-kredit siyosati — pul-kredit organlarining makroiqtisodiy siyosati, pul bozori shart-sharoitlari (qisqa muddatli foiz stavkasi, nominal valyuta kursi yoki joriy likvidlik darajasi) orqali yalpi talabni boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Bank sektorining yakuniy kombinatsiyasiga erishish, jumladan, narxlar barqarorligi, barqaror ayriboshlash kursini saqlab qolish, moliyaviy jihatdan ham barqarorlik va muvozanatli iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish hamdir.

Pul-kredit siyosati bevosita va bilvosita vositalar orqali amalga oshiriladi:

1. Bevosita vositalar — moliyaviy institutlardagi moliyaviy aktivlar narxlari (foiz stavkalari)ni yoki ular hajmini to'g'ridan to'g'ri boshqarish orqali olib boriladi. Markaziy bank tomonidan tijorat banklaridagi mavjud depozit ko'rinishidagi pullarni hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar narxlari va hajmini ham nazoratda tutadi.

2. Bilvosita vositalar — Markaziy bank tomonidan moliyaviy institutlar resurslarita bozor mexanizmlari (majburiy zahira talablari, ochiq bozordagi operatsiyalar, tijorat banklarini qayta moliyalash va Markaziy bankning hisob stavkasi, tijorat banklaridan depozitlarni qabul qilish va boshqalar) orqali iqtisodiyotdagi pul massasiga ta'sir etadi.

Bulardan tashqari, Markaziy bank foydalanadigan vositalarning har biri foiz stavkalarining o'sishiga, kreditlash va qarz olish hajmini kamaytirishga, lozim bo'lganda foiz stavkalarini oshirishga yoki aksincha, tushirishga xizmat qiladi. Ochiq bozordagi operatsiyalar, majburiy eng kam zahiralarning bo'lishi, hisobga olish siyosati, valyuta siyosati pul-krediti siyosatining asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi².

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki bugungi kunda iqtisodiyot jadal rivojlanib borayotgan bir vaqtida 2017 yilda boshlangan iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlari rolini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi o'rta muddatli istiqbolda bank tizimi va pul-kredit siyosatini rivojlanirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Ushbu yo'nalishdagi muhim qarorlardan biri milliy valyuta almashuv kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanish tamoyillarini joriy etish orqali ichki valyuta bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirilishi bilan bog'liq amaliy qadamlar bo'ldi.

Valyuta kursi shakllanishida tamomila yangi yondashuvdan foydalanilishi, o'z navbatida, Markaziy bankning asosiy e'tiborini ichki bozordagi narxlar barqarorligiga qaratish asnosida pul-kredit siyosatini takomillashtirish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. A.V.Vahobov., T.S.Malikov.Moliya. «NOSHIR».Toshkent-2012. 636-
2. Мадина Гайфулина./специалист департамента. Оценка эффективности операционного механизма денежно-кредитной политики. Тошкент. 2021
3. Mayexl N., Monetar siyosatni qo'llash:Rivojlanayotgan monetary rejimlarga ega mamlakatlardagi operatsion masalalar(XVF).
4. <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/concept/>
5. https://banki.ru/wikibank/denejno-kreditnaya_politika/

² A.V.Vahobov., T.S.Malikov.Moliya. «NOSHIR».Toshkent-2012. 636